

YAKKABOG'DARYO HAVZSI LANDSHATLARINING TASNIFI

Rahimov Shahzod Xasan o'g'li - Qarshi davlat universiteti magistranti

Аннотация. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan, Qashqadaryo viloyati Qashqadaryo havzasida joylashgan Yakkabog'daryo havzasi landshaftlari tasnifi, ularni tog' va tekislik sinflariga ajratish, Yakkabog'daryo havzasi landshaftlari turlari va tiplariga ta'rif berish va baholash jihatdan o'rganish.

Tayanch so'zlar: Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo havzasi landshaft, relyef plastikasi landshaft tasnifi, geoekologiya landshaftlari sinflash landshaft geomorfologiyasi landshaftlari, geoaxborot tizimi (GAT), raqamli xaritalash,

КЛАССИФИКАЦИЯ ЛАНДШАФТОВ БАССЕЙНА

ЯККАБОГДАРЬО

Рагимов Ш.Х. - Магистрант Каршинского государственного университета.

Аннотация. В данной статье описывается классификация ландшафтов бассейна реки Яккабогдарьо, одного из самых популярных мест в Кашкадарьо, с точки зрения топографии и плоскостности.

Ключевые слова: Яккабогдарьо, ландшафт бассейна реки Танхоздарьо, рельеф, пластичность ландшафта, классификация ландшафтов, геоэкология, ландшафты, геоморфология, ландшафты, система геоаксборо (GAT), цифровое картографирование.

CLASSIFICATION OF LANDSCAPES OF THE

YAKKABOGDARYO BASIN

Rahimov Sh.Kh. - Master's student of Karshi State University. Uzbekistan

Annotation. In this article, the classification of landscapes of the Yakkabog'daryo basin, which is one of the most popular tales in the Kashqadaryo province, is described in terms of tog' and flatness. baholash jihatdan o'rganish.

Keywords: Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo basin landscape, relief plasticity landscape classification, geoecology, landscapes, sinflash landscape geomorphology landscapes, geoaxborot system (GAT), digital mapping,

Mavzuning dolzarbligi.Hozirgi vaqtda iqlimning keskin o'zgarishi va ilmfan tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida insonlar ehtiyoji ortib bormoqda. Shu boisdan jahonda aholi sonining o'sib borishi, tabiiy resurslardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning ortishiga va shu bilan birga atrof landshaft komplekslarida turli xil o'zgarishlar, cho'llanish, degradasiya, tashlama suvlardan hosil bo'lgan antropogen irrigatsion ko'llarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 15-bandida "quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish, tiklash va ulardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, erlar degradasiyasini to'xtatish, biologik xilmaxlilikni yo'qolishini oldini olish"lga qaratilgan vazifalar belgilangan. Bu vazifalar arid iqlimli mintaqalarda antropogen va tabiiy omillar ta'sirida ro'y beraётgan landshaft komplekslarining transformatsiyasi jaraёnini baholashni va ularni sun'iy yo'ldoshlar ёrdamida monitoring qilishni hamda landshaftlarning ekologik barqarorligini takomillashtirishni taqozo etadi. Yakkabog'daryo havzasi landshaftlari ham antropogen ta'sir natijasida transformatsiyaga uchrab o'zining barqarorligini yo'qotib bormoqda. Xususan landshaftlarni o'rganish orqali landshaft tiplari ajratib baholash mumkin.

Kirish.Landshaftlarni tasniflash murakkab masala bo'lib bu borada juda ko'p olimlar fikr yuritgan va o'z landshaft tasniflarini keltirib o'tishgan. Rus olimlaridan N.A.Gvozdetskiy (1961), A.G.Isachenko (1961, 1975), V.A.Nikolaev (1973, 1979) F.N.Milkov (1970) kabilarning tajribalari e'tiborga loyiq. Bu olimlar tavsiya etgan tasniflar ichida V.A.Nikolaev (1979) bajargan tasnif o'zining anchagina mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu tasnifning yaratilishi asosida landshaftshunos olim N.A.Nikolaev ko'p yillar davomida Qozog'iston dashtlarida landshaftlarni xaritaga tushirish borasida olib borgan izlanishlari yotadi. O'zbekiston olimlaridan Qarshi dashti (I.Hasanov), Janubiy Orolbo'yi (A.Rafiqov, I.Hasanov), Turon tekisliklari (N.A.Kogay, Sh.S.Zokirov), Amudaryo va Sirdaryo oralig'i (Sh.S.Zokirov) va boshqa olimlar ishlari landshaftlarni o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.(1;2;8;)

Landshaftlarni tabiiy tasniflash ishlaridan tashqari antropogen landshaftlarni tasniflash borasida ham birqancha ilmiy ishlar olib borilgan. Antropogen landshaftlar inson tomonidan o'zgartirilgan va inson tomonidan barpo etilgan komplekslardir. Antropogen landshaftlar tasnifini yaratish borasida ozmi-ko'pmi ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay (F.N.Milkov, 1973, 1986; N.N.Iogansen, 1970; N.I.Axtirseva, 1977; K.A.Drozdov, 1988 va b.), bu masala ancha serqirra va murakkab bo'lganligi uchun o'z yechimini tugal topmagan. Har qanday tasnif obyektini chuqur va batafsil tahlil etishni talab qiladi.(9;8;10)

Asosiy qism. Yakkabog'daryosi havzasi landshaftlari haqida umumiy qilib aytadigan bo'lsak yuqoridagi tasniflash ishlarida ko'rinib turibdiki ularni o'rganish muhim ahamiyatga ega.Qashqadaryo okrugi shimoli sharqida joylashgan Yakkabog' tumanidagi daryo.Daryo havzasi landshaftlari 2 ta tog' va tekislik landshaftlari sinfiga kiradi(11)

Tog' landashtlari sinfi Hisor tog' tizmasi tog' oldi hududlari balandligi 1500-2500 m balandlikda bo'lgan hududlarni o'z ichiga olib Hisor tog' tizmasining shimoli-g'arbiy hamda janubi-g'arbiy qismidagi hududlarni o'z ichiga oladi.Bu hududlar landashti tog' landashftlar sinfiga kirib adir past tog' va tog' oldi, o'rtacha tog'lar landshaft turiga, kuchli va kuchsiz parchalangan landashft bo'lib,avtomorf va yarim gidromorf landshaftlar guruhiga kiradi.Yakkabog' tumani janubi sharqiy qismlari landshatft bioiqlimiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rmon o'tloqi dasht landshaftlari,janubiy qismida esa ozroq maydon cho'l dasht va quruq-dasht landshaftlariga turiga kiradi.Tuproq landashft bo'yicha bu hudular qong'ir tusli hamda och bo'z tusli tuproqlar yuqoriga chiqqan sayiniz bo'z turoqlar o'tloq dasht tuproq tiplariga almashadi.Tog'larda turli o't va siyrak archa o'simliklar tog' kserofitlari bilan qoplangan hudulardir.(3;6:10;11)

Tekislik landshaft sinfi.Tekislik landashft sinfiga ko'ra chol va cho'l dast landshaftlari turi bo'lib bu hududlar Yakkabog' tumani g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlaridir.Qarshi cho'li janubiy qismlari balandligi 400m dan 1000m gacha bo'lgan hudulari landshafti avtomorf bo'z tuproqlar qoplangan.Cho'lga hos

bo'lgan o'simliklar ksemorf shuvoq va efemereoid yarim butalardan iborat antropogen landshaftlardir.(1;2;7;11)

Yakkabog'daryo landshaftlari boshqa landshaftlar kabi chuqur izlanish va ilmiy o'rganishga muhtoj bo'lib landshaftlari xilma xildir.Landshaftlar o'zining barqorligi hamda undagi fitomassaning miqdoriga asoslanib tabiiy hamda antropogen ta'sirlar natijasida dinamik o'zgarishga,ya'ni landshaftlar yaxshilanib modda va energiya almashinuvi natijasida yaxshilanib borishi, yoki antropogen ta'sir va iqlim keskinlashuvi natijasida barqarorligi yo'qolib landshaft tubdan o'zgarishi mumkin.Yakkabog'daryo havzasi landshaftlari ham boshqa landshaftlar qatori tabiiy va antropogen landshaftlarga ega.(3;4;7;10)

1-jadval

Tabiiy landshaftlarning asosiy turlari va ko'rinishlari

Bir jinsli landshaftlar	Bir jinsli landshaftlar turlari va xillari	Landshaftlarning aralash turlari
Tog'	Baland tog' O'rtacha tog' Adir	Tog'-suvli Tog'-o'rmonli Tog'-dashtli
O'rmon	Dasht o'rmonlar Tog' o'rmonlari va boshqalar	O'rmon-dasht O'rmon-tog' O'rmon-tundra
Suvli	Okean Dengiz Ko'l Daryo	Tog'-okean Tog'-dengiz O'rmon-kyli O'rmon-daryo
Cho'l	Qumli Chakalakzorlar va boshqalar	Tog' qazilmalari yerlari
Dasht	Tundra Cho'l va boshqalar	O'rmon-dasht

Ushbu tasnifda asosan quyidagi to'rt guruh landshaftlar aks ettirilgan:

- 1) shartli o'zgartirilmagan (ibtidoiy) landshaftlar. Ular bevosita inson ta'siriga va xo'jalikdagi faoliyatiga duchor bo'lmagan landshaftlardir. Ularda inson faoliyatining kuchsiz va bilvosita izlarinigina payqash mumkin, xolos;
- 2) kuchsiz o'zgartirilgan landshaftlar. Bular, asosan, inson faoliyatining ekstensiv (ovchilik, baliqchilik kabi) xili ta'siriga duchor bo'lgan landshaftlar. Bunday landshaftlarda inson faoliyati ayrim komponentlargagina ta'sir etib, tabiiy aloqadorliklar hali buzilmagan va avvalgi o'z holatini tiklab olishi mumkin;
- 3) buzilgan (kuchli o'zgartirilgan) landshaftlar. Bu guruhdagi landshaftlar, asosan, inson faoliyatining jadal xili ta'sirida o'zgargan landshaftlardir. Ularning ko'p komponentlari o'zgarib, landshaftlar strukturasi sezilarli darajada buzilishiga olib kelgan;
- 4) madaniy landshaftlar. Strukturasi inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilona o'zgartirilgan landshaftlardir.(1;2:3:6)

Antropogen landshaftlar ham yakkobog'daryo havzasida va uning yaqin atrof hudularida bo'lib ularning ahamiyati juda katta. Antropogen landshaftlarni o'zgartirilganligi darajasi hamda landshaftlarning antropogenlashish jarayonining yo'nalish xususiyatlari asosida antropogen landshaftlarning besh turini ajratadi:

1. O'zgartirilgan landshaftlar. Bunda landshaftlarning strukturasi, inson tomonidan kuchli o'zgartirilgan bo'lishiga qaramay, birlamchi tabiiy landshaftlarning strukturasi eslatadi.
2. Renaturlashgan landshaftlar turi tabiiy rivojlanish jarayonida dastlabki landshaftlarning ko'rinishini egallagan avvalgi ichki tabiiy muvozanatiga qaytgan antropogen landshaftlardan iboratdir.
3. Transformatsiya qilingan antropogen landshaftlar turi. Bular sifat jihatidan yangilangan o'simlik qoplami bilan farqlanadi va turli guruhlarga bo'linadi. Masalan, haydab ekin ekilgan dasht yoki kesib yuborilgan o'rmonlar o'rnida hosil bo'lgan dala landshaftlar guruhi, o'tloq yoki dasht o'rnida hosil bo'lgan dala landshaftlari guruhi, o'tloq yoki dasht o'rnida barpo etilgan o'rmon antropogen landshaftlar guruhi va h.k.

4. Xuddi tabiiydek (psevdotabiiy) landshaftlar guruhi. Bular inson ta'sirida hosil bo'lgan, o'z-o'zini boshqarib, barqarorlashib qolgan va tabiiy landshaftlardan farqlash qiyin bo'lgan antropogen landshaftlar turi.

5. Antropogen landshaftlar, ya'ni yangitdan barpo etilgan landshaftlar. Bular yana 4 guruhga (karer-chiqindi uyumlari landshaftlari, seliteb landshaftlari, qo'rg'onlar landshaftlari, suv landshaftlari) bo'linadi.(2:7;8;10)

2-jadval

Antropogen landshaftlar tasnifi

Sinflar	Turlar	Yerlardan foydalanish turlari
Qishloq xo'jaligi landshaftlari	Dala O'tloq-yaylov Bog' Aralash	Haydalgan yer, Dala pichan o'rish va yaylov Bog'lar va uzumzorlar Ko'p yarusli tropik mamlakatlar
O'rmon landshaftlari	Shartli-tabiiy Ikkilamchi(hosilaviy) Madaniy o'rmon	Sun'iy ekinlar O'rmonlar yerlari
Suv landshaftlari	Sun'iy dengizlar Suv omborlari	Sun'iy yaratilgan suv havzalari
Texnogen landshaftlar	Texnik buzilgan landshaftlar	Avtomobil yo'llari, Hidrostansiyalar, qazilmalar, Olingan yerlar
Aholi yashaydigan landshaftlar	Urbanizatsiyalashgan	Shaharlar va qishloqlar, qishloq-xo'jaligi mahsulotlari ekilgan yerlar va boshqalar
Rekreatsion landshaftlar	Rekreatsion	Kurortlar, turistik markazlar va bazalar, plyajlar va boshqalar.

Xulosa. Yakkabog'daryo daryo havzasi atrofida landshaftlar o'zining barqarorligini bir muncha yo'qotgan. Bunga sabab iqlim va atropogen omillar. Xususan tekislik landshaftlarini yaxshilash uchun yerni melioratsiya qilish hamda daryo suvlaridan oqilona foydalanish beton negizli kanallar qazish. derjalar qazish kerak asosiy maqsad daryo suvi sarfini tejash hamda yer osti suvlari sathini kamaytirishdir. Cho'l va chala cho'l landshaftlari juda ta'sirchan bo'lib transformatsiyaga uchrash juda yuqori bo'lib mo'tadil turdan keskin holatga juda tez o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdulkasimov A., Abdulkasimov A., Abdulkasimov I. Antropogennie landshafti Sredney Azii i voprosi Ekologii. (Uchebnie posobiye). Tashkent, 2004.
2. Boymirzayev K.M Landshaftshunoslik asoslari O'quv qo'llanma Namangan 2023
3. Ellis, Erle C.; Ramankutty, Navin. 2008. Putting people in the map: anthropogenic biomes of the world. *Frontiers in Ecology and the Environment* 6: 439-447
4. Kurakova L.I. Antropogennie landshafti. –M.: Izd.№17, 1976.
5. Milkov f.N. Chelovek i landshafti. Ocherki antropogennie landshaftovedeniye. – M.: Misl, 1973.
6. Sanchez J.R., Kaufman G.J., Reavy K., Homsey A., “Chapter 1-Watersheds & landscapes” in the technical report for the Delawary estuary & basin. Partnership for the Delawary estuary. PDE report № 12-01. 2012. 14-47 pp
7. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. Toshkent.: 2016 85 -b
8. Zokirov Sh. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. Toshkent, 1998.
9. Камышев А.П. Анализ устойчивости природно-технических систем Северо-Западной Сибири. //Геоэкология. -М., 2000. №2. — С. 116-216
10. O'zbekiston Milliy Atlasi 1-Tom Toshkent 2020 122-124-214-216-220 betlar